



Xodjayev Sobir Djumayevich,

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
E-mail: khsobir@yahoo.com

IJTIMOY GERONTOLOGIYA MUAMMOLARINI TADQIQ QILISHDA SOTSIOLOGIK YONDASHUVLAR VA ULARNING TALQINI

Annotasiya. Ushbu maqolada gerontologiya muammolarini o‘rganishda keksalik va qarish jarayonlari bo‘yicha asosiy sotsiologik nazariyalar, ularning asosiy ilmiy g‘oyalari va asoslari ochib berilgan. Shu bilan birga, bu sotsiologik qarashlarning ustun tomonlari va kamchiliklari ilmiy mushohada asosida tahlil qilingan, ularning yondashuvlaridagi o‘zgarishlar davriylik nuqtayi-nazaridan asoslangan hamda bu nazariyalar asosida empirik tadqiqotlarning fanlararo umumiy metodologiyasini yaratish zaruriyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: qarish, keksalik, ijtimoiy gerontologiya, faollik nazariyasi, ijtimoiy inqiroz nazariyasi, Ijtimoiy konstruktivizm, ijtimoiy almashinuv, ozodlik nazariyasi, yosh stratifikatsiyasi, feministik konsepsiya, siyosiy iqtisod konsepsiyasi, tanqidiy nazariya.

Аннотация. В данной статье раскрываются основные социологические теории старости и процессов старения, их основные научные идеи и основания при изучении геронтологических проблем. Также на основе научного подхода анализируются преимущества и недостатки этих социологических взглядов, обосновано с точки зрения периодичности изменения в их подходах, указываются необходимость создания междисциплинарной единой методологии эмпирических исследований на основе этих теорий.

Ключевые слова: старение, старость, социальная геронтология, теория деятельности, теория социального кризиса, социальный конструктивизм, социальный обмен, теория освобождения, возрастная стратификация, феминистская концепция, политэкономическая концепция, критическая теория.

Annotation. This article reveals the main sociological theories of elderly and aging processes, their main scientific ideas and foundations in the study of gerontological problems. In addition, based on a scientific approach, the advantages and disadvantages of these sociological views are analyzed, changes in their approaches are justified in terms of the frequency, and the need to create an interdisciplinary unified methodology for empirical research based on these theories is indicated.

Key words: aging, old age, social gerontology, activity theory, social crisis theory, social constructivism, social exchange, liberation theory, age stratification, feminist concept, political economy concept, critical theory.

Kirish. “Keksalik” ijtimoiy muammo sifatida XXI asrning fenomeni hisoblanadi. Sanoatlashish, urbanizatsiya, oila ukladining o‘zgarishi, “bilimlardagi monopoliya”ning qayta taqsimlanishi demografik jarayonlarning o‘zgarishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida umumiy aholi tarkibida keksalar ulushining keskin oshishini keltirib chiqardi.

Hozirgi kunda gerontologik muammolarni hal qilish faqat tibbiy talqinlarga muvofiq amalga oshmasligi aniq. Aynan shuning uchun ham g‘arb davlatlarida ijtimoiy gerontologik fani keng taraqqiy etmoqda. Bu fanning asosini keksalik sotsiologiyasi tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu o‘rta pog‘onali nazariya ijtimoiy gerontologiyaning fanlararo sohasini turli darajalarda: mikro darajadan

makro-ijtimoiy tahlilgacha bo'lgan nazariy va uslubiy tadqiqot tushunchalar apparati bilan asoslaydi va ta'minlaydi¹.

Keksalik fenomenini sotsiologik tahlil qilish aholi yosh tarkibida keksalar ulushining ko'payishi emas, bu faktni noto'g'ri talqin etish va qarish oqibatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, individual ravishda bartaraf etish yechimlarni izlash muhim muammoga aylanmoqda deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Qarish hodisasini turli yondashuvlar nuqtayi-nazaridan polisemantik tushunish: biologik, bu qarishning moslashuv imkoniyat yo'qolishiga olib boradigan organizm rivojlanishining uzluksiz bosqichi deb hisoblaydi; psixologik, qarilikni kishini o'zini qari deb o'z-o'zicha anglash lahzasi deb belgilaydi; ijtimoiy gerontologik, unda keksalik ma'lum bir madaniy yoki vaqt davriga xos bo'lgan demografik ko'rsatkichlarning ma'lum bir yoshdagi shaxsga tegishli bo'lgan ijtimoiy maqomlar va talablar majmuyi nisbati sifatida belgilaydi. Bu uning o'zini shaxsiy idrok etishi bilan birgalikda gerontologik tadqiqotlar doirasida umumiy nazariy fanlararo asosni qurishni talab qiladi. Buning natijasida empirik tadqiqotlar ma'lumotlarini tushunish va tushuntirishga imkon beradi, ularni analitik sotsiologik vositalar yordamida haqiqiy ijtimoiy kontekstga moslashtiradi. Umumiy nazariy asosni yaratish uchun zamonaviy ehtiyojlarga mos keladigan ijtimoiy gerontologik bilimlarning to'plangan tajribasidan foydalanish muhimdir.

Asosiy qism. 1940-yillarda paydo bo'lgan va E.Stinglish nomi bilan bog'liq ijtimoiy gerontologiyaning qisqa muddatli tarixiy rivojlanish bosqich davomida nazariyalar yaratishga yo'naltirilgan ko'plab intellektual sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Keksalik tadqiqoti bo'yicha dastlabki ishlar H.Hall, E.Cowdry, R.Linton, T.Parsons va R.Havighurst singari tadqiqotchilar tomonidan empirik natijalar va nazariy asoslarni uyg'unlashtirish orqali takomillashdi va ijtimoiy gerontologiyaning asosini tashkil etdi².

Keksalik va qarish jarayoni bo'yicha xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari va maqolalari

¹ Handbook of theories of Aging/ V.L. Bengtson [et al.]; edit by V.L. Bengtson. – N. Y. : Springer Publishing Company, 1999. – 516 p.

² The Cambridge handbook of age and ageing/ V.L. Bengtson [et al.]; edit by M.L. Johnson. – New York: Cambridge University Press, 2005. P 741.

tahlili keksalik bo'yicha kamida 16 sotsiologik konsepsiyalar mavjudligini ko'rsatdi va hozirgi kungacha ham ulardan ijtimoiy gerontologiyaning nazariy asoslari sifatida foydalaniladi. Mazkur nazariyalarni 3 mezon bo'yicha: 1) paydo bo'lish vaqti – birinchi, ikkinchi va uchinchi avlodlar; 2) umumiy sotsiologik paradigmaga – ramziy interaksionizm, strukturaviy-funksionalistik tahlil, ayirboshlash nazariyasi va shunga o'xshash nazariyalarga taalluqlilik; 3) tahlil darajasi – ma'lumotlarni mikro darajadan makro darajagacha tahlil qilish bo'yicha tasniflash mumkin.

Sotsiologlarning maxsus nazariyasi sifatida keksalik sotsiologiyasining nazariy va uslubiy asosini ishlab chiqish uchun 1) Ularning ilmiy kelib chiqishi. 2) O'rganilayotgan muammolarning mohiyati. 3) Tahlil qilish tamoyillari. 4) Empirik masalalarni echishda ayrim nazariyalarni amaliyotda qo'llash namunalari 5) Nazariyalarning imkoniyatlari va cheklovlariga oid bir qator masalalarni tahlil qilish va ularga javob berish muhim.

1953-yilda R.Havighurst va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan faollik nazariyasi "birinchi avlod" nazariyasiga taalluqli. Bu nazariyaga ko'ra, keksalikda jamiyat hayotida ishtirok etish va faollik qoniqish uchun muhim, muvaffaqiyatli qarish faol keksayishga teng hisoblanadi. Faollik o'z tabiatiga ko'ra jismoniy va intellektual bo'lishi mumkin, ammo bu nazariya doirasida u asosan jamiyatda faol rollarni ta'minlashga tegishli bo'ladi³. Shunday qilib, faoliyat nazariyasida keksa kishilar o'zlarining shaxsiy ijobiy imijlarini saqlab qolish uchun yangi qiziqishlar, xobbi, rollarni rivojlantirishga va hayotlarining oxiriga kelib kamaygan yoki yo'qolgan munosabatlarni yangilashlari kerakligi ta'kidlanadi.

Uzluksizlik nazariyasi mualliflari R.Atchley va G.Maddoxning tushuntirishicha, shaxsiyat va uning mazmuni, xulq-atvori, afzal ko'rishlari, rolli faoliyati va asosiy xatti-harakat shakllari hayot davomida doimo izchil shaklda bo'lishi kerak. Bu nazariya qaysidir ma'noda faoliyat nazariyasiga tayanadi va uni yangilaydi. Mazkur nazariyada etnik mansublik, jins, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy status (maqom) singari jihatlarining ta'siri kam e'tiborga olinganligi uchun ko'proq tanqid

³ Longino, Ch. Explicating Activity Theory: A Formal Replication / Ch. Longino, C. Kart // Journal of Gerontology. – 1982. – Vol. 17. – P. 713–722.

qilinadi hamda amaliy tadqiqot natijalari asosida tasdiqlanishi mumkin emas deb da'vo qilinadi⁴. Ma'lum bo'lishicha, bu nazariya me'yoriy qarishni hayot istiqbolida tasvirlashni taklif qiladi, bunda hayotning keyingi qismi dastlabki qismning davomi hisoblanadi.

1973-yilda V.Bengtson tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy inqiroz nazariyasi yoki nomlash nazariyasi keksa kishilarni jamiyatdan ajratilgan ma'lum bir marginal guruhga ajratadi⁵. Shu asosda, keksalik deviantlikning holati sifatida tasvirlanadi, bunda ular jamiyatga foydasi tegmaydigan, oldingi qobiliyati, o'ziga ishonch, ijtimoiy va psixologik mustaqillik hissini yo'qotgan marginal guruh sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi mualliflari T.Dayamond (T.Diamond), J.Gambrium (J.F.Gumbrium), C.Kaufman (S.R.Kaufman) keksalikning ijtimoiy ta'sirlar va ijtimoiy tuzilmaning ta'siri asosida ro'y beradigan individual jarayonlarini tushuntirishga emas, balki tushunishga bo'lgan qiziqishlarini ifodalagan. Birinchidan, ular yosh va qarishning ijtimoiy tuzilishini tadqiq qilish orqali shaxslarni ijtimoiy-strukturaviy talqin bilan bog'ladi. Masalan, keksalar to'g'risida qaram, g'ayritabiyy yoki deviant sifatida stereotiplarning shakllanishi aniqlangan, bu holatni qarish va keksalik stereotiplarini yo'naltirilgan tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Ikkinchidan, bu nazariyalar yoshning ijtimoiy ahamiyatiga qaratilgan tadqiqotlar orqali qarishning vaziyatli, yangi va konstitutiv xususiyatlarini o'rganadi. Uchinchidan, qarishning ijtimoiy konstruktivistik nazariyalari ijtimoiy voqelik vaqt o'tishi bilan o'zgarib borishini, kamolot jarayonida yuzaga keladigan hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy rollardagi o'zgarishlarni aks ettirishini ta'kidlaydi⁶.

Bu nazariya mualliflar tomonidan qarish jarayonining turli jihatlarini hisobga olish uni ijtimoiy gerontologiyada eng ko'p tilga olinadigan nazariyalardan biriga aylantirdi.

Buning sababi, birinchidan, ijtimoiy konstruktivistik nazariya kishilarning kundalik

hayotda qanday faol ishtirok etishini, o'zlari va o'z atrofida qilari uchun ijtimoiy mazmunlarni yaratishi va ishlab chiqarishini tan oladi.

O'zaro ta'sirning mazkur ijtimoiy jarayoni dialektik sifatida tushunish mumkin – individual xatti-harakat reallikni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida individual hayotning tuzilmasi hisoblanadi. Ikkinchidan, bunday yo'nalish ijtimoiy gerontologiyaning fanlararo sohasida yaxshi qo'llaniladi, chunki ko'plab turli mavzularga moslashtirilishi mumkin. Uchinchidan, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi keksalik bo'yicha boshqa zamonaviy sotsiologik nazariyalarga, xususan, feministik va kritik nazariyalarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Sotsiologiyada ijtimoiy almashinuv nazariyasining kelib chiqishi Xomans va Blau tomonidan ishlab chiqilgan mumtoz qarashlarda o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy gerontologiyada Dj. Doud (J.J.Dowd) va V.Bengtson (V.L.Bengtson) bu nazariyalar asosida keksa kishilar bilan yoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning susayish sababini keksalarning ijtimoiy ayirboshlash jarayonida taklif etadigan resurslarining kamligi bilan izohlashadi. Qarishda qo'llaniladigan ushbu tendensiya turli yoshdagi shaxslar o'rtasidagi almashinuv xatti-harakatlarini qarilik bilan birga keladigan rollar, qobiliyatlar va resurslarning o'zgarishi natijasida tushuntirishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy almashinuv nazariyasi, shuningdek, avlodlar o'rtasida qabul qilingan va berilgan narsalar o'rtasidagi muvozanat yoki nomutanosiblik uchun tushuntirishlarni taklif qiladi.

Qarish bo'yicha ijtimoiy almashinuv nazariyasining uchinchi muammosi ayirboshlash xatti-harakati keksayishning o'zgarayotgan sharoitlarga va o'zaro munosabatga qanday aks etayotganini tushuntirishdir⁷.

Ijtimoiy almashinuv nazariyasining sotsiologiyaga qo'shgan asosiy hissasi – uning aloqalar almashinuvlari va ijtimoiy ko'makni tushuntirib berishidir, chunki bu ayirboshlashlar hissiy, ijtimoiy yoki moliyaviy resurslar tufayli yuzaga keladi.

J.Rozen va B.Noygarten) hamda E.Kamming (E.Cumming) va V.Genri (W.Y.Henry) tomonidan

⁴ Atchley, R. C. A Continuity Theory of Normal Aging / R. C. Atchley // The Gerontologist. – 1989. – Vol. 29. – P. 183–190.

⁵ Bengtson V.L. Theory, Explanation and a Third Generation of Theoretical Development in Social Gerontology / V. L. Bengtson // The Journal of Gerontology and Social Sciences. – 1997. – P. 72–88.

⁶ Gubrium, J. F. Living and Dying at Murray Manor / J. F. Gubrium. – N. Y : St. Martin's Press, 1975. P 221.

⁷ Cox, H. History of social gerontology / H. Cox, R. Newton // Sociological practice. – 1993. – Vol. 11. Iss. 1, Article 4. – P. 16–32.

ishlab chiqilgan ozodlik nazariyasi keksalik bo'yicha eng dastlabki va munozarali nazariyalardan biri hisoblanadi. Bu nazariya qarishni jamiyatni keksa avlod vakillaridan asta-sekin uzoqlashishi sifatida talqin etadi. Bu o'zaro uzoqlashish yoki ozod bo'lish – qarish tufayli kelib chiqadigan tabiiy, maqbul, universal jarayon. Bu barcha madaniyatlardagi katta avlod vakillariga xos. To'g'ri, ayrim holatlarda istisno ham bo'lishi mumkin. Bu nazariyaga muvofiq, ozod bo'lish aynan keksa avlod vakillari uchun ham, jamiyat uchun ham afzallikka ega. Jamiyat va munosabatlardan asta-sekin yiroqlashish ijtimoiy muvozanatni saqlab qoladi va ijtimoiy rollardan ozod bo'lgan katta yoshdagi kishilarga o'zini namoyon etishga imkon beradi. U katta avloddan yoshlarga bilim, malaka, ko'nikma, kapital va hokimiyatni uzatish uchun tartiblashgan vositalarni taqdim etadi. Bu esa jamiyat a'zolari vafotidan keyin ham jamiyatning to'laqonli ishlashi davom etishiga sabab bo'ladi.

Bu nazariyaning kamchiliklari sifatida uni qo'llab-quvvatlaydigan tadqiqotlar va faktlar yetishmasligini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, ma'lumki, ko'plab keksa kishilar jamiyatda o'z o'rnini va aloqalarini saqlab qolishni istaydi, bu esa uzoqlashish jarayonini hech bo'lmaganda bir tomon uchun istalmagan qilib qo'yadi [8]⁸. Bu holatda, bir tomondan, keksa odamlarni jamiyatdan chetlashtirish ijtimoiy tizim muvozanatini saqlashga imkon beradi, ikkinchi tomondan, keksa odamlarni jamiyatda faol mavqe saqlab qolish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Ijtimoiy gerontologiyada modernizatsiya nazariyasi asosan sotsiologlar D.Kougil (D.Cowgill) va L.Xolms (L.Holmes) tadqiqotlari asosida shakllandi. 1972-yilda ular keksalik va qarish jarayoni bilan bog'liq modernizatsiya nazariyasini ishlab chiqdi.

Ularning nuqtayi-nazaricha, jamiyat uy xo'jaligi va hunarmandchilikka asoslangan ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarish usuli hukmronligi bilan bog'liq modernizatsiya jarayoniga o'tishi bilan keksa kishilarning maqomi ham keskin o'zgaradi.

D.Kougill (D.Cowgill) nazariy tadqiqotlarida modernizatsiyaning keksalar maqomini belgilaydigan 4 ta asosiy jihati: 1) sog'liqni

saqlash; 2) iqtisodiy va sanoat texnologiyalari; 3) urbanizatsiya; 4) ta'limni alohida ajratib ko'rsatadi. Nazariya asosida D.Kougill tibbiyot amaliyotidagi yutuqlarni o'z ichiga olgan sog'liqni saqlash texnologiyalarini takomillashtirish aholi sihat-salomatligini yaxshilash va uzoq umr ko'rish davomiyligini oshirishga yordam beradi, lekin shu bilan birga, keksa kishilarga salbiy ta'sir ham ko'rsatadi, chunki kishilar qancha uzoq yashasa, mehnat bozorida raqobat shunchalik katta bo'ladi. Industrial jamiyatlarda ish beruvchilar keksa kishilarga nisbatan yangi kasbiy bilimlarga ega bo'lgan yosh xodimlarni afzal ko'rishadi, bu esa keksalarni pensiyaga chiqishga majbur qiladi⁹. Shunday qilib, pensiyaga chiqish, modernizatsiya nazariyasiga ko'ra, daromad, nufuz va hurmatning yo'qolishiga, keksa kishilar mavqeyi tushishiga olib keladi.

Keksalik submadaniyati nazariyasi A.Rouz (A.Rose) tomonidan taklif qilingan "birinchi avlod" qarishi to'g'risidagi nazariyani ifodalaydi. Unga ko'ra, keksa kishilar yoshlarga nisbatan birlari bilan ko'proq o'zaro muloqotga kirishadi, chunki ularda umumiy muammolar mavjud, shuningdek, ular odatda boshqa ijtimoiy doiralardan chetlashtirilgan bo'ladi.

Keksalik submadaniyat nazariyasi qarindoshlik, irq, kasbiy tegishlilik, ijtimoiy sinf, din singari xususiyatlarga asoslangan mansublik bo'lmagan yosh bilan bog'liq aloqalarni inkor etganligi uchun tanqid qilinadi [10]¹⁰.

Boshqacha aytganda, keksalar o'zlarining yosh doirasiga kirmagan kishilar o'zaro munosabatlarga kirishishdan chetlatilishdan ko'ra yosh tavsiflari bilan bog'liq bo'lmagan guruhlar bilan potensial o'xshashlikka ega bo'ladi.

Ushbu o'zaro harakat shakllariga shaxsiy afzalliklar, ijtimoiy to'siqlar, shaxsning o'tmishdagi ijtimoiy mansubligi singari omillar ta'sir o'tkazadi.

Keksayish jarayonining asosiy jihatlarini tadqiq etishni rivojlantirgan holda hayot bosqichi nazariyasi mikro ijtimoiy darajadagi tahlildagi muayyan

⁸ Cumming, Y. Growing Old: The Process of Disengagement / Y. Cumming, W. Henry. – N.Y. : Basic Books, 1961. – 293 p.

⁹ Bengtson V.L. Theories about age and aging/ V.L. Bengtson // Handbook of theories of aging/ V.L. Bengtson [et al.]; edit by V.L. Bengtson. – 2nd ed. – N.Y. : Springer Publishing Company, 2009. – 23 p.

¹⁰ Settersten R.S. Trends in the sociology of aging: thirty ear observations/ R.S. Settersten, and J.L. Angel // Handbook of sociology of aging. – Corvallis, 2011. – Chapter 1. – P. 3–13.

an'analarni ifodalaydi. Bu nazariyaning asosiy g'oyalari R.Xill (R.Hill) va Y.Dyuval (E.Duvall), G.Elder (G.Yelder), K.Rigel (K.F.Riegel), G.Xagenshtad (G.O.Hagestad) va B.Nyugarten (B.L.Neugarten)larning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Tahlilning makro ijtimoiy darajasida bu nazariya J.Klauzen (J.Clausen), T.Xareven (T.K.Hareven), M.Koli (M.Kohli), K. Mayer (K.U.Mayer) asarlarida ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu yo'nalish makro bilan mikro darajadagi tahlil, aholi bilan individlar o'rtasidagi sotsiologik va psixologik qarashlarning yaqinlashuvini ifodalaydi. O'z tadqiqotlarida hayot bosqichi nazariyasini tadbiq etgan olimlar 1) qarishning dinamik, kontekstual va jarayonli tabiatini; 2) yoshga yo'naltirilgan harakatlar va hayot yo'nalishlarini; 3) qarish sabablari va unga ijtimoiy muhit, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning ta'sirini; 4) yoshdagi o'zgarishlarni shakllantiradigan vaqt, davr va toifalarni quyidagilarni tushuntirib berishga harakat qilishgan¹¹.

Ta'kidlash lozimki, hayot bosqich nazariyasi qarish jarayonini tushuntirish va tushunishda ko'proq ixtiboslar keltiriladigan ta'limotlardan biri bo'lib, ijtimoiy fanlarda keksalikni o'rganishda katta ulush qo'shadi. Birinchidan, hayot bosqichi ta'limoti tarix, ijtimoiy tuzilma va individual xususiyatlarning ta'sirini nazariy va analitik modellarga bog'lash orqali tahlilning ikkita darajasini birlashtirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, bu yondashuv ham mazmuni, ham usullari jihatidan fanlararo yoki hech bo'lmaganda tadqiqotning ko'p tarmoqli sohasini ifodalaydi. Bu yondashuv an'anaviy akademik fanlar: sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, tarix doirasida o'z aksini topadigan bir-birini qanday to'ldirish mumkinligini taklif qiladigan yondashuvlarni birlashtiradi. Uchinchidan, hayot bosqichi ta'limoti dinamik o'zgaruvchan nazariyadir: mazkur yo'nalish doirasida hayot bosqichining segmentlari, individlari yoki toifalarining biriga e'tibor qaratishga emas, balki hayot shaklini to'laligicha qamrab olishga harakat qilinadi, bu yerda hayot bosqichi yo'nalishlaridagi og'ma xatti-harakatlar ham e'tiborga olinadi.

¹¹ Bengtson V.L. Theory, Explanation and a Third Generation of Theoretical Development in Social Gerontology/V. L. Bengtson// The Journal of Gerontology and Social Sciences. – 1997. – P. 72–88.

M.Rilley (M. W.Riley), A.Founer (A.Foner) va J.Voring (J.Waring) larning yosh stratifikatsiyasi nazariyasining ildizlari strukturaviy funksionalizm paradigmasiga, aniqrog'i, P.Sorokin, K.Mangey, T.Parsons qarashlariga taalluqlidir. Ular ushbu paradigmaning uchta asosiy komponentini qayd etadilar: 1) ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun vaqt o'tishi bilan yosh guruhlaridagi harakatlarni o'rganish; 2) vaqt o'tishi bilan tarkibiy va individual o'zgarishlar o'rtasidagi sinxron o'zgarishlarni o'rganish; 3) yosh guruhlari va ijtimoiy tuzilmalarning o'zaro bog'liqligini o'rganish.

Yosh stratifikatsiyasi nazariyasi ijtimoiy gerontologiyani tushuntirishda katta hissa qo'shgan. Birinchidan, u keksalik nazariyasini sotsiologiya asoslariga birlashtiradigan bir qator nazariy yo'nalishlardan biriga o'xshab ketadi. Mazkur yo'nalish yosh va ijtimoiy tuzilmalarga e'tibor qaratgan nazariyalardan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, yosh stratifikatsiyasi murakkab yosh strukturasi uzoq umr ko'rishga ta'sir qiladigan tahdidlarini ochishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uchinchidan, u individual rivojlanish bilan tarixiy o'zgarishlar o'rtasidagi ahamiyatli aloqalarni yo'lga qo'yadi¹².

Shunga ko'ra, yosh stratifikatsiyasi nazariyasi yosh guruhlari ichidagi o'zgarishlarga e'tiborni qaratadi, shuningdek, vaqt, davr va toifalarga bog'liq bo'lgan farqlarni o'rganish usullarini taqdim etadi.

Feministik konsepsiya tarafdorlari keksalik va qarilikni tushunishda jinsdan asosiy tushuntirish konstruksiyasi sifatida foydalanish kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu nazariyaga ko'ra, gender hayot davomida ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi tamoyil bo'lib, qarish amaliyotini sezilarli darajada o'zgartiradi. Makro darajadagi tahlilda qarishning feministik nazariyasi keksa erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi iqtisodiy va kuch munosabatlariga asosiy e'tiborni qaratadi. Tahlilning mikro darajasida feministik nazariya genderni ijtimoiy ahamiyat shaklida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Feministik nazariya, shuningdek, individual va ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarga, ayniqsa, hukmronlik munosabatlariga e'tibor qaratish orqali qarishning mikro va makro

¹² Riley, M.W. Age and Structural Lag: Society's Failure to Provide Meaningful Opportunities in Work, Family, and Leisure / M.W.Riley, R.L.Kahn,

yondashuvlarni birlashtirishga harakat qiladi. Feministik nazariya hayot bosqichi nazariyasi yoki ijtimoiy konstruktivizm singari mashhur va ko'p iqtiboslar keltiriladigan ta'limot bo'lmasada, u ijtimoiy gerontologiyaning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan.

Birinchidan, bu yo'nalish ayollarning ehtiyojlariga, shu bilan birga keksa odamlar o'rtasidagi farqlarning boshqa shakllarini tadqiq etish zarurligini ta'kidlaydi. Shunga muvofiq, feministik nazariya vakillari an'anaviy androsentrik o'sishlarni rag'batlantirish orqali qarishning yanada inklyuziv portretini yaratishga harakat qilishadi. Ikkinchidan, gerontologiyadagi feministik izlanishlar asosan xotin-qizlarning kundalik hayotiga tegishli muammolarni hal qilish orqali amalga oshiriladigan amaliyot bilan bog'liq. Uchinchidan, feministik yo'nalish vakillari nazariyaning strukturaviy va individual darajalariga urg'u bergan holda qarish sotsiologiyasida makro- va mikro-konseptual aloqalar uchun modellarni taqdim etadi¹³. Bundan tashqari, ular an'anaviy ravishda yosh muammolarini istisno qiladigan "asosiy" feministik nazariyalardagi yosh o'zgarishlarini tanqid qiladilar.

Qarish bo'yicha siyosiy iqtisod konsepsiyasi ijtimoiy tuzilmalar, iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatning yetuk shaxslarga ta'sirini hamda kattalar uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlarni ta'kidlaydi. Tanqidiy nazariya bilan birlashtirganda, siyosiy iqtisod konsepsiyasi qarish tajribasi xilma-xil ekanligini va ijtimoiy sinf yoki ijtimoiy ozchiliklarning maqomi kabi tarkibiy cheklovlarga asoslanganligini ko'rsatadi¹⁴.

Keksayishning tanqidiy ta'limoti zamonaviy ijtimoiy gerontologiyaning aksariyat nazariy yo'nalishlarini, jumladan, qarishning siyosiy iqtisodi, feministik nazariyani va gumanistik gerontologiyani namoyon etadi. Shuni qayd etish lozimki, tanqidiy gerontologiya ikkita turli modellar asosida rivojlandi. Ulardan biri gumanistik o'lchovga yo'nalgan bo'lsa, boshqasi tarkibiy elementlarga qaratilgan.

X.Mudi (N.R.Mudi) tanqidiy gerontologiyaning to'rtta vazifasini ko'rsatib bergan. Bular 1) qarishning subyektiv va talqiniy o'lchovlarini nazariylashtirish; 2) texnik jihatdan takomillashishga emas, balki ijtimoiy siyosat singari amaliy o'zgarishlarga qo'shilish harakati bilan belgilanadigan amaliyotlarga e'tibor qaratish; 3) amaliyotlar orqali olimlar va tadqiqotchilarni bog'lash; 4) "ozod qilingan bilim"ni yaratish [14]¹⁵. Bundan tashqari, V.Danefer (V.D.Dannefer) fikricha, tanqidiy gerontologiya yangi paydo bo'lgan nazariyalarni tanqid qilmasligi kerak, balki yoshning ustunlik va turli-tumanlilikini ta'kidlagan holda qarish modellarini yaratishi kerak. Shu bilan birga, V.Dafner qarishni o'rganishda o'zgaruvchanlikni e'tiborga olmaslikni o'rganishda ham tanqidiy nazariyani qo'lladi. Uning ta'kidlashicha, yoshga qarab geterogenlikni oshirish tushunchasi ijtimoiy gerontologiyaning nazariy asoslariga mos kelmaydi, ularning ko'pchiligi, asosan, rivojlanish va ijtimoiylashuvning individual darajalari hisoblanadi va me'yoriy qarishga qaratilgan¹⁶.

Xulosa. Keksalik bo'yicha sotsiologik nazariyalarining avlodlari va ularning tasnifi asosiy g'oyani tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy gerontologiya va keksalik sotsiologiyasidagi har bir nazariyaning o'ziga xos intellektual tarixi bor, unda gerontologik muammolarni tushuntirishda erishilgan yutuqlar yoki muvaffaqiyatsizliklar qanday ta'minlanganligi o'z ifodasini topgan.

Gerontologiyadagi mavjud sotsiologik nazariyalar o'z yondashuvlari asosida keksalik va qarishning mazmun-mohiyatini ochib berishga, olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalari bilan nazariyalarini boyitishga va nazariyalarini takomillashtirishga harakat qilishadi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, keksalik va qarish jarayoni nafaqat bitta gerontologiya doirasida o'rganilishi, shu bilan birga gerontologik soha fanlararo soha ekanligi, qarish jarayoni biologik, psixologik, tibbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillarning ta'siri orqali ro'y berishi hamda har bir omil inson hayotining ma'lum davrida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim.

¹³ Calasanti, T. Gender and Life Stratification in Retirement: An Assessment of the Male Model / T. Calasanti // Journal of Gerontology: Social Sciences. – 1996. – Vol. 51B. – P. 18–29.

¹⁴ Quadagno, J. The Political economy Perspective in Aging / J. Quadagno, J. Reid // Handbook of Theories of Aging / yed. by V. L. Bengtson, K. W. Schaie. – N. Y. : Springer, 1999. – P. 344–360.

¹⁵ Moody, H. R. Toward a Critical Gerontology: The Contribution of the Humanities to Theories of Aging/H. R. Moody// In Yemergent Theories of Aging/ ed. by J. Ye. Birren and V. L. Bengtson. – N. Y.: Springer, 1988. – P. 19–40.

¹⁶ Dannefer, W. D. Adult Development and Social Theory: A Paradigmatic Reappraisal / W. D. Dannefer – American Sociological Review, 1984. – P.100–116.

Keksalikning ijtimoiy nazariyalarini qurishda sotsiologlarning oldingi tajribasi va yutuqlari qarish jarayonining o'zini tushunish va tushuntirishda ham, gerontologiya oldida turgan vazifalarni ta'minlash bo'yicha ustuvor ishlarda ham asosiy bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ham keksalik va qarish jarayonini fanlararo soha ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsak, ayni paytda bu soha oldida turgan ustuvor vazifalardan biri empirik ma'lumotlarni tushuntirish vositasi bo'lib xizmat qiladigan tadqiqotning umumnazariy doirasini shakllantirish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Handbook of theories of aging/ V.L. Bengtson [et al.]; edit by V.L. Bengtson. – N. Y. : Springer Publis'hing Company, 1999. – 516 p.
2. The Cambridge handbook of age and ageing. V.L. Bengtson [et al.]; edit by M.L. Johnson. – New York: Cambridge University Press, 2005. – 741 p.
3. Longino, Ch. Yexplicating Activity Theory: A Formal Replication / Ch. Longino, C. Kart // Journal of Gerontology. – 1982. – Vol. 17. – P. 713–722.
4. Atchley, R. C. A Continuity Theory of Normal Aging / R. C. Atchley // The Gerontologist. – 1989. – Vol. 29. – P. 183–190.
5. Bengtson V.L. Theory, explanation and a Third Generation of Theoretical Development in Social Gerontology/V. L. Bengtson// The Journal of Gerontology and Social Sciences. – 1997. – P. 72–88.
6. Gubrium, J. F. Living and Dying at Murray Manor / J. F. Gubrium. – N. Y : St. Martin's Press, 1975. – 221 r.
7. Cox, H. History of social gerontology/ H. Cox, R. Newton// Sociological practice. – 1993. – Vol. 11. Iss. 1, Article 4. – P. 16–32.
8. Cumming, Ye. Growing Old: The Process of Disengagement / Ye. Cumming, W. Henry. – N. Y. : Basic Books, 1961. – 293 p.
9. Bengtson V.L. Theories about age and aging. V.L. Bengtson // Handbook of theories of aging/ V.L. Bengtson [et al.]; edit by V.L. Bengtson. – 2nd ed. – N. Y. : Springer Publis'hing Company, 2009. – 23 p.
10. Settersten R. S. Trends in the sociology of aging: thirty ear observations/ R. S. Settersten, Jr. and J.L. Angel // Handbook of sociology of aging. – Corvallis, 2011. – Chapter 1. – P. 3–13.
11. Riley, M. W. Age and Structural Lag: Society's Failure to Provide Meaningful Opportunities in Work, Family, and Leisure / M. W. Riley, R. L. Kahn, A. Foner; edit by M.W. Riley. – N. Y. : Wiley, 1994. – 304 r.
12. Calasanti, T. Gender and Life Stratification in Retirement: An Assessment of the Male Model / T. Calasanti // Journal of Gerontology: Social Sciences. – 1996. – Vol. 51B. – P. 18–29.
13. Quadagno, J. The Political economy Perspective in Aging / J. Quadagno, J. Reid // Handbook of Theories of Aging / ed. by V. L. Bengtson, K. W. Schaie. – N. Y. : Springer, 1999. – P. 344–360.
14. Moody, H. R. Toward a Critical Gerontology: The Contribution of the Humanities to Theories of Aging/H. R. Moody// In Yemergent Theories of Aging/ ed. by J. Ye. Birren and V. L. Bengtson. – N. Y.: Springer, 1988. – P. 19–40.
15. Dannefer, W. D. Adult Development and Social Theory: A Paradigmatic Reappraisal / W. D. Dannefer – American Sociological Review, 1984.